

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası va O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti "Iqtisodiy fanlar" kafedrası o'rtasida tuzilgan**

**HAMKORLIK SHARTNOMASI**

**Toshkent shahri**

**2021 yil " 29 " dekabr**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi PF-6079-sonli farmoni va 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoniga muvofiq, bir tomondan O'zbekiston Milliy universiteti (keyinchalik matnda "Universitet") "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası mudiri iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor N.G.Mo'minov va ikkinchi tarafdin Jamoat xavfsizligi universiteti "Iqtisodiy fanlar" kafedrası (keyinchalik matnda "JXU") boshlig'i iqtisodiyot fanlari doktori, professor J.J.Urmonov bilan o'zaro hamkorlik qilish maqsadida tuzildi.

**I. SHARTNOMANING PREDMETI VA MAQSADI**

Jamoat xavfsizligi universitetida o'quv jarayoni, o'quv-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy, tashkiliy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etishni takomillashtirish va rivojlantirish, fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish, yangi o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy ko'rsatmalar, dastur va darsliklarni hamkorlikda tayyorlash, ilmiy-tadqiqotlarni hamkorlikda o'tkazish, amalga oshirish, amaliyotga qo'llashga ko'maklashish, ta'lim yo'nalishlariga mos innovatsion ishlanma va ilg'or tajribalar borasidagi ilmiy ishlanmalarni amaliyotga qo'llash, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik va uzluksizlikni ta'minlash hamda uning samaradorligini oshirish ushbu Shartnomaning maqsadi hisoblanadi.

**II. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI**

**O'zbekiston Milliy universitetining majburiyatlari:**

2.1.1. Jamoat xavfsizligi universitetida o'quv jarayoni, o'quv-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy, tashkiliy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot faoliyatni tashkil etish, takomillashtirish va rivojlantirishga ilmiy-uslubiy, tashkiliy va amaliy yordam berish va hamkorlik qilish;

2.1.2. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq JXUda tayyorlanadigan barcha mutaxassisliklar bo'yicha Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlarini ekspertizadan o'tkazish, ularni amalga joriy etishni o'rganish va tegishli tashkiliy-uslubiy yordam berish;

2.1.3. JXUdagi "Iqtisodiy fanlar" kafedrasida o'qitiladigan fanlaridan o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlari, o'quv-uslubiy majmualar va o'quv-didaktik materiallar ishlab chiqish va ularni o'quv jarayoniga joriy etishga amaliy-uslubiy yordam berish;

2.1.4. JXUning professor-o'qituvchilari malakasini oshirish, xususan, ularning ilg'or ta'lim texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya vositalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga amaliy yordam ko'rsatish;

2.1.5. JXUning iqtidorli kursantlari va talabalarini tanlash va ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishga, ularning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini Universitet ilmiy jurnali va boshqa ilmiy manbalarida chop etishga ko'maklashish;

2.1.6. JXU o'qituvchilarini, xususan, yosh iqtidorli pedagoglarni ilmiy-izlanuvchanlik jarayoniga faol jalb etish maqsadida, kafedra o'qituvchilarini ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanishlari va kelgusida fan doktorlari tayyorlashga (jumladan maqsadli asosda) ko'maklashish;

2.1.7. JXU o'qituvchilari va kursantlariga Milliy universitet Axborot-resurs markazidan foydalanishga imkoniyat yaratish;

2.1.8. JXUda ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferentsiyalar va seminarlar tashkil etishga, JXUning xalqaro o'quv va ilmiy-tadqiqot aloqalarini shakllantirish va rivojlantirishga, professor-o'qituvchilar, kursant va talabalarlarni xalqaro ilmiy va o'quv grantlarida ishtirok etishlariga ko'maklashish;

2.1.9. JXUda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, kursant va talabalarni bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etish, kursantlarda ona Vatanga muhabbat va sadoqat, millatimiz, dinimiz va tariximizga yot bo'lgan turli illatlarga qarshi mustahkam immunitet hosil qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tashkil etishga amaliy yordam ko'rsatish;

2.1.10. JXU taklifiga muvofiq Universitet professor-o'qituvchilarini JXUda o'tkaziladigan Yakuniy Davlat attestatsiyalari a'zolari (raisligi)ga o'rnatilgan tartibda jo'natish;

2.1.11. Kelishuvlarga muvofiq Universitetning yetakchi mutaxassislarini JXUda o'qitilayotgan iqtisodiy fanlar yo'nalishi bo'yicha tegishli fanlari mavzularidan namunaviy mashg'ulotlar, master-klasslar o'tkazishga jo'natish;

2.1.12. JXUning axborot-resurs ta'minoti va moddiy-texnik salohiyatini takomillashtirish va rivojlantirishga ko'maklashish, Universitetning Axborot-resurs markazi, Axborot texnologiyalari markazi va Innovatsion ta'lim texnologiyalari markazidan JXU ehtiyojlariga muvofiq foydalanishga imkoniyat yaratish va boshqalar.

### **Jamoat xavfsizligi universitetining majburiyatlari:**

2.2.1. JXUda o'quv jarayoni, o'quv-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy, tashkiliy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish, takomillashtirish va rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida Universitet tomonidan so'ralgan hujjatlar va materiallarni o'z vaqtida etkazib berish;

2.2.2. Hamkorlikda yaratilayotgan o'quv adabiyotlari, o'quv-uslubiy majmualar va o'quv-didaktik ishlanmalarni JXU o'quv jarayoniga tadbir etilishini o'rganish, ekspertizadan o'tkazish va ularni yanada takomillashtirish maqsadida Universitet professor-o'qituvchilari va mutasaddi xodimlarini turli ishchi guruhlar va komissiyalar tarkibiga jalb etish;

2.2.3. Universitetning malakali professor-o'qituvchilarini JXU o'quv jarayoniga jalb etish;

2.2.4. Universitet professor-o'qituvchilarini JXUda o'tkaziladigan Yakuniy Davlat attestatsiyalari a'zolari (raisligi)ga taklif etish;

2.2.5. JXUda o'tkaziladigan tadbirlar, davra suhbatlari, seminar va konferentsiyalarga Universitet xodimlarini taklif etish;

2.2.6. Universitetda o'tkaziladigan tadbirlarda qatnashish;

2.2.7. Universitet yetakchi mutaxassislarini tajriba almashish maqsadida JXUda o'qitilayotgan iqtisodiy fanlar yo'nalishi bo'yicha namunaviy mashg'ulotlar, master-klasslar o'tkazishga taklif etish.

### **III. SHARTNOMANING MAXSUS SHARTLARI**

3.1.1. Shartnoma bo'yicha tomonlar majburiyatlarini bajarishi borasida yuzaga keladigan nizolarni o'zaro kelishuv orqali hal etadilar. Ushbu Shartnoma ikki nusxada tuzildi va imzolangan vaqtdan boshlab 3 (uch) o'quv yili davomida kuchga ega bo'ladi.

3.1.2. Shartnomaga taraflarning roziligi bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin hamda taraflarning kelishuviga ko'ra muddatidan oldin tugatilishi mumkin.

3.1.3. Amalga oshirilishi ma'lum moliyaviy resurslarni jalb qilishni taqozo etadigan ayrim vazifalarning ijrosini tashkil etish maqsadida Universitet va JXU o'rtasida o'rnatilgan tartibda qo'shimcha ravishda tegishli shartnomalar tuziladi.

#### IV. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI


Manzil: Toshkent shahar, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi 4 uy  
Tel: 998-71-246-62-32;  
Faks: 998-71-246-90-80  
Indeks: 100174

Manzil. Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo'rg'oni  
Tel: 998-71-230-32-71  
Faks: 998-71-230-32-50  
Indeks: 100211

“TASDIQLAYMAN”


Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti  
rektori, professor

  
Majidov I.U.  
“ 22 ” 12 2021 yil



Ijrochilar:

Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti  
“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasini  
mudiri, i.f.n., prof.

  
N.G. Mo'minov  
“ 22 ” 12 2021 yil


“TASDIQLAYMAN”

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig'i, professor

  
Rustambaev M.X.  
“ 22 ” 12 2021 yil

Ijrochilar:

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Iqtisodiy fanlar” kafedrasini boshlig'i, i.f.d., prof.

  
J.J. Urmonov  
“ 22 ” 12 2021 yil